



KUTUBXONALARDA ELEKTRON XARID TIZIMI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR TAHLILI

Ruziyeva Fotima Murotovna

Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani

*G'uzor tumani axborot-kutubxona markazi, Abonement va
foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati rahbari.*

+99890-893-84-25

Annotatsiya: Ushbu maqolada kutubxonalarda elektron xarid tizimini joriy etishning dolzarb jihatlari, bu tizimning yuzaga keltirayotgan imkoniyatlari hamda amaliyotda uchrayotgan muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron xarid tizimidan samarali foydalanish uchun kutubxona mutaxassislari va foydalanuvchilari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar yoritiladi. Maqolada elektron jarayonlarni takomillashtirish va mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kutubxona, elektron xarid tizimi, raqamli xizmatlar, imkoniyat, muammo, axborot texnologiyalari, foydalanuvchi, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются текущие аспекты внедрения электронной системы закупок в библиотеках, возможности, которые создает эта система, и проблемы, возникающие на практике. Также освещаются основные задачи, которые должны выполнять специалисты и пользователи библиотек для эффективного использования электронной системы закупок. В статье приводятся рекомендации по улучшению электронных процессов и устранению существующих проблем.

Ключевые слова: библиотека, электронная система закупок, цифровые услуги, возможности, проблемы, информационные технологии, пользователь, инновации.

Abstract: This article analyzes the current aspects of implementing an electronic procurement system in libraries, the opportunities this system creates, and



the problems encountered in practice. It also highlights the main tasks that library specialists and users must perform to effectively use the electronic procurement system. The article provides recommendations for improving electronic processes and eliminating existing problems.

Keywords: library, electronic procurement system, digital services, opportunity, problem, information technology, user, innovation.

Kirish

Bugungi kunda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, uning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, 2018 yil 9 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun imzolangani bu sohadagi islohotlarning muhim bosqichi bo'ldi. Ushbu qonun davlat xaridlarini ochiq va adolatli tarzda amalga oshirish, tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tizim davlat byudjeti, markazlashtirilgan manbalar hamda davlat ulushiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlar mablag'laridan samarali foydalanish imkonini ham yaratadi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi natijasida elektron xarid (e-procurement) tizimi keng qo'llanilmoqda. Bu tizim orqali tovar, ish va xizmatlar internet platformalarida xarid qilinadi va barcha jarayonlar — e'lon berish, takliflarni qabul qilish, tender o'tkazish hamda shartnoma tuzish — onlayn tarzda amalga oshiriladi.

So'nggi o'n yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Kitobxonlar va axborot izlovchilar ehtiyojini tez va sifatli qondirish, kutubxona xizmatining zamon talablariga mos bo'lishini ta'minlash uchun elektron xarid tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda elektron xarid tizimi kutubxonalar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda [1]. Elektron xarid tizimi — kutubxonalar uchun kerakli axborot resurslarini, xususan, kitoblar, jurnallar va boshqa materiallarni tanlash, buyurtma qilish, xarid qilish va moliyaviy hisobot yuritishni elektron shaklda amalga oshirishdir. Mazkur tizim kutubxona faoliyatida tezkorlik, aniqlik, oshkoralik va resurslarni tejash imkonini beradi. Avval qo'lda bajariladigan ko'plab jarayonlar



endilikda avtomatlashtirilmoqda, bu esa inson resurslarining samarali ishlatilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Elektron xarid tizimi kutubxonalar faoliyatida bir qator yangi imkoniyatlarni yaratdi. Eng avvalo, kitoblar va boshqa resurslarni tanlash, buyurtma qilish va yetkazib berish jarayonlari tezlashdi va soddalashdi. Kitobxon va foydalanuvchilarning talablarini real vaqtda kuzatish, ularni tezda qondirish imkoniyati paydo bo'ldi. Axborot resurslarining hajmi va turlarini ko'paytirish, sifatli va zamonaviy adabiyotlarni fondga tez jalb qilish imkoniyati kengaydi. Tizimda avtomatlashtirilgan hisobotlar yuritilishi kutubxona moliyaviy va statistik ma'lumotlarining aniqligini oshirishga yordam beradi. Elektron xarid tizimi nafaqat kutubxona xodimlari, balki foydalanuvchilar uchun ham bir qator qulayliklarni yaratadi. Endi foydalanuvchi istalgan vaqtda onlayn tarzda kutubxonaga zarur bo'lgan adabiyot yoki boshqa resurs buyurtmasini yuborishi va uning holatini kuzatishi mumkin. Bu kutubxonaning ochiqligi va aholi bilan yaqin hamkorligini ta'minlaydi [2].

Elektron xarid tizimini joriy etishda duch kelinayotgan asosiy muammolar orasida texnik va dasturiy vositalarning yetishmasligi, xodimlarning kompyuter texnologiyalarini yetarlicha bilmasligi, byudjet mablag'larining chegaralanganligi, tizimga integratsiya qilinadigan milliy axborot platformalarining cheklanganligi kabi muammolar mavjud. Bundan tashqari, ayrim kutubxonalarda internet tezligi pastligi, xavfsizlik choralarining yetarli darajada emasligi ham jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dastlab kutubxona tizimida elektron xarid faoliyati haqida yetarlicha tushuncha shakllangani yo'q edi, bunda bevosita dasturiy ta'minotlar va xodimlarning malakasini oshirish zarur edi. Xodimlar uchun muntazam o'quv seminarlarni tashkil etish, ilg'or tajribalar almashinuvi, trening va master-klasslar, qo'llanmalar yaratish orqali malakali kadrlarni shakllantirish juda muhim bo'lib chiqdi [3].

Muhokama va natijalar



Tashkiliy va moliyaviy muammolarni hal etishda davlat tomonidan xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, shuningdek, kutubxonalarga ajratiladigan byudjet mablag'larini oshirish, grant va loyihalarda faol ishtirok etish muhim sanaladi. Elektron xarid tizimini natijali amalga oshirish uchun, avvalo, kutubxona faoliyatini tahlil qilib, asosiy ehtiyojlarini aniq belgilab olish zarur. Keyingi bosqichda esa zarur dasturiy ta'minotni tanlash, xodimlarni o'qitish va tizimni testdan o'tkazish amalga oshirilishi lozim. Shundan so'ng asosiy ish boshlanib, xarid faoliyati to'liq elektron shaklda yuritiladi. Jarayon davomida tizim ishlash samaradorligini doimiy kuzatib borish va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borish talab qilinadi [4].

Kelajakka nazar tashlasak, kutubxonalarda elektron xarid tizimi orqali sun'iy intellekt asosidagi tahliliy platformalar, axborot xavfsizligi, blokcheyn texnologiyalari va mobil ilovalarni keng joriy etish zarurati yanada oshadi. Bu o'z navbatida kutubxona faoliyatining barcha sohalarini yangi bosqichga olib chiqadi. Foydalanuvchilar uchun shaxsiy kabinetlar va push-bildirishnomalar tizimi, elektron to'lov xizmatlari, avtomatik inventarizatsiya jarayonlari tatbiqi, global kutubxona platformalariga integratsiyalashish ham kelajakda asosiy vazifalardan bo'lib qoladi. Innovatsion platformalarda kitoblarni onlayn o'qish yoki ulardan foydalanish, kitobxonlarning qiziqishlarini o'rganib, ular uchun mos adabiyotlarni avtomatik tavsiya etish imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. Bu yondashuv foydalanuvchi ehtiyojlarini yanada samarali va bir necha baravar tezlikda qondirish imkonini beradi [5].

Elektron xarid tizimi asosan davlat tashkilotlari, kompaniyalar, ta'minotchilar va nazorat organlari uchun mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy maqsadi xarid jarayonlarini shaffof, raqobatbardosh va iqtisodiy jihatdan tejamkor qilishdan iborat. Biroq, bu tizim amalda qay darajada samarali ishlamoqda? Ushbu savolga javob topish uchun masalaga kutubxonalar va kutubxonachilar nuqtai nazaridan yondashib ko'raylik. Kutubxonalar uchun elektron xarid tizimining bir qator qulayliklari mavjud. Avvalo, barcha xarid jarayonlarining ochiqligi ta'minlanadi. Masalan, xarid qilinadigan kitoblar yoki boshqa resurslar haqida to'liq ma'lumot —



nomi, muallifi, nashri, texnik xususiyatlari va narxi — aniq ko'rsatilishi kutubxonachilarga to'g'ri tanlov qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, turli ta'minotchilar o'rtasidagi raqobat kitoblar va boshqa mahsulotlarni nisbatan arzon narxda sotib olishga sharoit yaratadi. Yana bir muhim jihat — vaqt va resurslarni tejashdir. Ilgari an'anaviy usulda o'tkaziladigan xarid jarayonlari ko'p vaqt talab qilgan bo'lsa, elektron tizim orqali bu jarayonlar ancha tezlashdi. Shuningdek, barcha hujjatlar elektron shaklda saqlanishi hisob-kitob va nazorat ishlarini osonlashtiradi. Shu bilan birga, elektron xarid tizimining ayrim noqulay tomonlari ham mavjud. Birinchidan, barcha kitoblar yoki kutubxona uchun zarur adabiyotlar elektron platformada doim ham mavjud bo'lmaydi. Bu esa kutubxona fondini to'ldirishda cheklovlarni keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, texnik talablar va aniq parametrlarga kiritish jarayoni ba'zan murakkablik tug'dirib, kutubxonachilardan qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Bundan tashqari, ayrim hollarda eng arzon taklifni tanlash ustuvor bo'lgani sababli, sifat masalasi yetarlicha inobatga olinmasligi mumkin. Bu esa kutubxona fondi sifatining pasayishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Shuningdek, internet tezligi yoki texnik nosozliklar ham xarid jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa:

Kutubxonalarda elektron xarid tizimining joriy etilishi axborot makonini zamonaviylashtirish, kutubxona xizmatini tez va sifatli amalga oshirish, foydalanuvchilarning barcha ehtiyojlarini qondirish, mablag'dan oqilona foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron xarid tizimi orqali kutubxonachilikda ochiqlik, shaffoflik, samaradorlik va zamonaviylik ta'minlanmoqda. Biroq, uni amalga oshirishda tarif etilgan ba'zi muammolarni hal qilish, doimiy ravishda texnologik va inson resurslarini rivojlantirishga e'tibor qaratish hali-hanuz muhim sanaladi. Keng qamrovli, innovatsion va jami kutubxonalar faoliyatini qamrab oluvchi elektron xarid tizimi kelajak kutubxonachiligining asosi bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron xarid tizimi kutubxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. U ochiqlik, shaffoflik va tejmkorlikni



ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq uning samaradorligini yanada oshirish uchun texnik imkoniyatlarni kengaytirish, kutubxonachilarning raqamli savodxonligini oshirish va sifat nazoratini kuchaytirish zarur. Ana shundagina mazkur tizim kutubxonalar rivojiga to'liq xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, T. Kutubxona xo'jaligida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Umarov, R. Raqamli kutubxona tizimlari va ularning integratsiyasi. Toshkent: Istiqlol, 2017.
3. To'xtayev, A. Kutubxona xizmatlarini elektronlashtirish: dastlabki natijalar va istiqbollar. O'zbekiston Milliy kutubxonasi jurnali, 2015.
4. Qodirova, N. Axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
5. Shukurullaev, X. Kutubxonalarda avtomatlashtirilgan jarayonlar. Samarqand: Ziyo, 2014.
6. Juraev, S. Elektron kutubxonalarda axborot xavfsizligi va muammolar. Buxoro: Akademiya, 2016.
7. G'afurova, M. Kutubxona faoliyatida axborot texnologiyalari. Nukus: Bilim, 2011.